

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 11

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Kucharov Jamshid Qulnazarovich

ROSSIYANING PAHTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TO'PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) 11-14

Taʼbaev Amirbek Ashirbaevich

Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР МАСАЛАСИ 15-23

Ҳамаев Нодирбек Мўминович

ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) 24-32

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUHORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING FAOLIYATI 33-36

Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич

НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ 37-42

Артикбаев Ойбек Салимахамаатович

ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 43-56

Atavullayeva Shaxlo Musoyevna

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Қўчқаров Файзулло Абдужабборович

ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ 63-70

Shao Junling

ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76

Ashirov Nurmurod Qulmatovich

RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN KENG KO'LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI 77-82

Togayev Salim Sobirovich

BANK XIZMATLARIGA BO'LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOZNI JALB QILISHNING SAMARALI YO'LLARI 83-89

Саттаров Ғанижон Озодович

МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ 90-96

<i>Yakubova Samira</i> LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING	97-102
<i>Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI	103-109
<i>Egamberdiyeva Salima Rayimovna</i> XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	110-118
<i>Xolmamatov Diyor Haqberdievich</i> SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH	119-127
<i>Gafurova Dilshoda</i> INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS	128-132
<i>Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich</i> TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH	133-139
<i>Raxmonov Mirvoxid Rajabovich</i> NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI	140-149
<i>Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li</i> DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI	150-159
<i>Aziza Umarova</i> AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING HORIJ TAJRIBASI	160-167
<i>Абдуллаев Бунёд Ўткирович</i> СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	168-178
<i>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich</i> SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN	179-185
<i>Алиматова Наргис Абдухалиловна</i> КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ.....	186-197

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna</i> F. NITSSHE “HAYOT FALSAFASI” KONSEPSIYASI IJTIMOY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI	198-204
<i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i> INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOY TABIATI	205-211
<i>Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна</i> РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ	212-218
<i>Urinboyev Dilmurod Tura o'g'li</i> HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI.....	219-225
<i>Яздонов Зикирилло Шукуруллоевич</i> АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ	226-231
<i>Nabiyev Maxsud Abdumannonovich</i> IQTISODIY MADANIYATNING MAZMUNIVAMOHIYATI	232-238
<i>Haydaraliyev Shuhratjon</i> MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	239-243
<i>Хамраев Сардорбек Шарафутдинович</i> ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ..	244-250
<i>Xashimov Sheraxon Jo'raxonovich</i> O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN O'RNI	251-260
<i>Хатамова Рашида Закиржановна</i> ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ	261-266
<i>Патиев Холдор Икромович</i> ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ	267-275
<i>Ismoilova Hayitxon Maxammadjonovna</i> FARG'ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY JARAYONLARIDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	276-280
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING O'ZARO ALOQADORLIGI	281-287
<i>Raxmankulov Farhod Raximkulovich</i> MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOY MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	288-292
<i>Shirinov Anvar Qanoatovich</i> MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI	293-299

Xandamova Marifat Akramovna
 “OSOR AL-BOQIYA” – ABU RAYHON BERUNIY ILMIY IJODINING DURDONASI..... 300-304

Teshaboev Muhiddin Marifovich
 IJTIMOY DAVLATDA IJTIMOY ADOLATNI TA’MINLASH VA IJTIMOY INSTITUTLARINING
 MAQSADI 305-311

Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich
 MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOY-GUMANITAR FANLAR
 TIZIMIDAGI O’RNI 312-320

Talapov Baxriddin Alijanovich
 DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL
 XUSUSIYATLARI 321-326

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Ayuzmuratova Nurjamal Dastembayeva
 КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА..... 327-332

Olga Filippova
 ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION 333-345

Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi
 INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O’ZBEK TILI O’ZLASHISH
 MASALALARI 346-351

Narzieva Gulnoza Akbarovna
 LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI 352-357

Qodirova Mukaddas Tog’ayevna, Ibragimova So’g’diyona Ikrom qizi
 INGLIZ-O’ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING
 QO’LLANILISHI 358-362

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Tўраев Сардор Абдихаким ўғли
 ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ
 ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ 363-371

Атаев Шокир Куранбаевич
 ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ
 АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ 372-377

Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич
 ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПИНING АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ
 ХУСУСИДА 378-385

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Adizova Nigora Baxtiyorovna
 MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING DIVERGENT
 TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH 386-390

<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARI TALABALARINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O'QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH	391-400
<i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	401-406
<i>Kenjabaev Jahongir Abdisalimovich</i> METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES	407-411
<i>Abdusamatov Alisher Sobirovich</i> TA'LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV	412-417
<i>Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna</i> TA'LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI	418-422
<i>Babayeva Maxfuza Abduvaitovna</i> TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI	423-429
<i>Nazarova Zarrina Allaberdiyevna</i> MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	430-435
<i>Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna</i> O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART- SHAROITLARI	436-442
<i>Умаров Азиз Авазович</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	443-447
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA).....	448-453
<i>Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna</i> DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQRISH METODIKASI	454-461
<i>Komilov Nodirbek Bokijonovich</i> THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS	462-466
<i>Sapieva Nargiza Mamayusufovna</i> IQTIDORLI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH	467-478
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i> XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI	479-484

<i>Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich</i> SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA O‘QITISH USULLARINI TANLASH	485-492
<i>Irgasheva Umida Raimjanovna</i> TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	493-498
<i>Turayeva Lolaxon Yuldashevna</i> ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O‘RGANISH VA NAMOYISH ETISH	499-505
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i> TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	506-510
<i>Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna</i> OLIY O‘QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O‘QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI	511-518
<i>Xasanova Gulnoza Raxatjanovna</i> KREDIT-MODULLI TA‘LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI	519-525

07.00.00-Тарих фанлари

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qıtuvchisi
Email: tilavovashahnoza249@gmail.com

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING
FAOLIYATI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligida jadidlar tomonidan XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida maorif sohasida amalga oshirgan ishlari, matbuotchilik faoliyati manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: taraqqiyparvarlar, maorif, jadid maktablari, tashkilot, matbuot, kutubxona, shirkat, islohot.

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna
Bukhara State Pedagogical Institute
Lecturer of the Department of Social Sciences

**THE ACTIVITIES OF THE JADIDS IN THE EMIRATE OF BUKHARA AT THE END OF
THE 19th AND THE BEGINNING OF THE 20th CENTURY**

Abstract. In this article, the activities of the Jadids in the Bukhara Emirate in the late 19th – early 20th centuries in the field of education and press activities are analyzed based on sources.

Key words: progressives, education, modern schools, organization, press, library, company, reform

Тилавова Шахноза Салохитдиновна.
Бухарский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры социальных наук

**ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДЖАДИДОВ В БУХАРСКОЙ ЭМИТАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX
ВЕКА**

Аннотация. В данной статье на основе источников анализируется деятельность джадидов в Бухарском эмирате в конце XIX начале XX веков в области образования и прессы.

Ключевые слова: прогрессисты, образование, современные школы, организация прессы, библиотека, общество, реформа.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I11Y2023N04>

Kirish. Madaniy-ma'rifiy rivojlanishning eng muhim poydevori – ta'lim tizimidir. Chunki zamon talablariga javob beradigan, ilg'or fan-texnika, texnologiya yutuqlarini o'zlashtirgan kadrlarni yetishtirmasdan, jamiyatni har tomonlama rivojlantirib bo'lmaydi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ham har nutqlarida, ma'ruzalarida yoshlarning qobiliyatini ro'yobga

chiqarishga bolalikdan e'tibor qaratib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etish kerakligini ta'kidlab o'tishi bejizga emas. Sababi, ilm-fanga e'tibor davlatni taraqqiy ettirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. O'z davrida faoliyatini ma'rifatparvarlikdan boshlagan jadidlar ham bu jihatlarni yaxshi anglagan holda, maorifni yuksaltirish uchun bor imkoniyatlarini ishga soldilar, o'z davlatlarini boshqa rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishini maqsad qilgan holda samarali faoliyat olib bordilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro amirligida jadidlar tomonidan XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida maorif sohasida amalga oshirgan ishlari, matbuotchilik faoliyati manbalar va manbashunoslarning tadqiqotlari asosida tahlil qilinadi. Jumladan, jadid ma'rifatparvarlari Mirzo Sirojiddin Hakim, Sadridin Ayniyar o'zi yashab turgan davrda jadidlarning maorif sohasidagi islohotchilik loyihalariga o'z hissalarini qo'shgan va shu davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning guvohi bo'lganlar. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolani yoritishda yuqorida nomlari keltirilgan ma'rifatparvarlarning asarlaridan foydalanildi. Shuningdek, XIX asr oxiri – XX asrlarda yashagan jadidlarning faoliyatini har tomonlama tadqiq etib o'rgangan tarixchi olimlar Q.Rajabov, D.Jamolova, F.Bobojonovanning ilmiy ishlarining mahsuli bo'lgan monografiya, ilmiy maqolalaridan ham foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada XIX asr oxiri – XX asrlarda yashagan jadidlarning faoliyatini yoritib berishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston, Buxoro va Xiva hududlarida jadidchilik namoyondalari yetishib chiqib, o'z davlatlarida ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan xatti – harakatlarni amalga oshirdilar. Jumladan, Buxoro amirligida yashab, faoliyat olib borayotgan taraqqiyparvarlar ham maorif tizimini tubdan yaxshilash choralarini ko'rdilar. Buxoro amirligida XIX asr oxiri- XX asr boshlarida bo'lib o'tgan transformatsion o'zgarishlar ham ko'plab sohalar qatori maorif tizimiga yangiliklarni olib kirdi. Buxoro amiri Amir Abdulahadxon (1885 — 1910) ning Qrim, Kavkazga sayohatlari davrida qirim-tatar ma'rifatparvari Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashuvlari, amirning taklifi bilan, Ismoil Gaspirinskiyning Turkistonning bir qancha shaharlariga sayohati, jadidlarning taraqqiy etgan davlatlardagi ta'lim taraqqiyotini kuzatishi bularning barchasi maorif sohasida yangiliklarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Jadidchilik harakati tashabbuskorlari jamiyatni qoloqlikdan taraqqiyotga olib chiqishda ta'lim tizimining roli beqiyos ekanligini anglaganlar. Shu tufayli jadidlarning dastlabki faoliyati ta'lim tizimini isloh qilishdan boshlandi. Musulmon maktablaridagi o'quv jarayonini isloh qilish — jadidchilik harakatining asoschisi qirim-tatar ma'rifatparvari Ismoil Gaspirinskiy (1851-1914) nomi bilan bog'liqdir. U Qrimning Boqchasaroy shahrida 1884- yilda yangi usul maktabini tashkil etdi va ushbu maktab usuli savtiya (tovush usuli), usuli jadid (yangi usul) nomlarini oldi. Buxoro amiri Abdulahad Boqchasaroyda Ismoil Gaspirinskiy bilan tanishib, uzoq suhbatlashdi va uni Buxoroga taklif etdi. Bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilgan Ismoil Gaspirinskiy 1893- yilning may oyida Buxoroga tashrif buyurdi. Shundan so'ng, Buxoroda birinchi jadid maktabi ochilib, unga Muzaffariya deb nom berildi [4.91-93]. Keyinchalik, bunday maktablar boshqa hududlarda ham keng tarqaldi. Dastlab, amirlikda 1900-1903 yillarda yangi usul maktablarini tatar o'qituvchilari ochib, dars o'tishgan [4.94]. Bu maktablar Buxoro xalqining ilg'or qatlami vakillarini jalb etib, ular tomonidan ham 1903-1906 yillarda jadid maktablari ochildi. Ammo ushbu maktablar diniy mutaassib ulamolarning tazyiqi

ostida 1909-yil sentabr oyiga kelib butunlay yopiladi [3.202]. Ammo, ulamolar ichida ham ilg'or fikrli shaxslar ham bo'lib, ular orasida Mufti Ikrom mashhur edi. Uning asl – ism sharifi Muhammad Ikrom ibn Abdusalom bo'lib, u Buxoro amirligida Domla Ikromcha nomi bilan mashhur bo'lgan. U 1894 – 1896 yillarda hajga borib, o'sha vaqtdagi Istanbul, Bag'dod, Sheroz va boshqa islomiy shaharlardagi taraqqiyotni ko'rib ta'sirlangan. Safardan qaytgach, Buxoro madrasalaridagi ta'lim dasturlarini tanqid qilib, 1912-yilda Yangi Buxoro (Kogon)da "Uyqudagilarni uyg'otish va johillarga bildirish" nomli kitobini nashr ettirgan. Shuningdek, u jadid maktablarini tashkil etish tarafdori bo'lib, o'zi ham Qorako'lda qozilik qilgan davrda jadid maktabini ochgan edi. Biroq, 1917 –yilning aprel oyida mutaassib ulamolarning tazyiqi ostida bu jadid maktabi ham yopiladi [5.159-160].

Amir Olimxon hukmronligi davrida jadidlar harakati ham rivojlanib borib, ular xalq orasida maorif va tarbiya ishlarini hamda millatning siyosiy ongini yuksaltirish borasida jonbozlik ko'rsatadilar. Jumladan, Sadridin Ayniyning qayd etishicha, jadidlar tomonidan Amir Abdulahad hukmronligining so'nggi yillarida tashkil etilgan "Tarbiyayi atfol" (Bolalar tarbiyasi) nomli tashkilot xalq orasida ilm va maorifni keng tarqalishiga xizmat qilib, ayni paytda ilmga chanqoq yoshlarni Istanbulga ilm olib kelishi uchun sharoit yaratish bilan ham shug'ullanadi. Tashkilot tomonidan 1911- yilda Istanbul maktablariga 15 nafar buxorolik, 1912 yilda 30 nafar yoshlar o'qishga yuboriladi [5.232-234].

Millat ma'naviyatini isloh etish, odamlarni ma'rifatli qilish, olamga ochiq nazar bilan boqishga o'rgatish va mudroq tafakkurni uyg'otishning eng asosiy omili sifatida jadidlar matbuotning qadrini baland ko'tardi. Ularning sa'y- harakatlari bilan amirlikda matbuot ham rivojlanadi. 1912- yilda 11- martda "Buxoroyi sharif" (forsiy tilda), hamda 14- iyulda "Turon" (turkiy tilda) nomli ilk jadid gazetalari nashr etiladi [6.40]. Ushbu gazetalar amirlikda madaniy- ma'rifiy ishlarni jonlantirishda muhim rol o'ynaydi. Gazetalarni moddiy jihatdan ta'minlash va nashr ishlarini yo'lga qo'yishda ma'rifatparvar jadidlar jonbozlik ko'rsatishadi. Shulardan biri mashhur sayyoh, tabib va ma'rifatparvar Mirza Sirojiddin Hakim (1877- 1914) bo'lib, u Istanbulda ta'lim olishidan tashqari, XX asr boshlarida Tehrondagi Amerika tibbiyot kolleji va Shveysariyadagi Bern universitetida tahsil olgan dastlabki o'zbek yoshlaridan biri bo'lgan. U o'zining 1912- yilda Yangi Buxoro (Kogon) da nashr etilgan "Tuhfayi ahli Buxoro" (Buxoro ahliga tuhfa) nomli asarida Yevropa va Sharq mamlakatlarida qilgan sayohatini tasvirlab, Buxoroni ham shunday madaniyati rivojlangan davlatlar safida ko'rishni istaydi [6.40]. Mirza Sirojiddin Hakim chet ellarda bo'lganida u yerdagi ta'lim tizimini ham yaxshi o'rganadi va Buxorodagi ta'lim bilan quyidagicha taqqoslaydi: Yevropada maktab va madrasalarni ko'rib o'zimizdagi maktab va madrasalar keldi, esladim- u, yuragim g'am va afsusga to'ldi. Nega bizni millatimiz ilmni shuncha xor qilib, uni tark etadi?... "Eron ulamolari ilm va san'atga g'ayratli, ishtiyoqli bo'lib, hamma shaharlarda maktablar ochgan. Tehronda jadid an'anaviy maktablari, dorulmuallimin, dorulfunun, siyosiy madrasa, harbiy madrasa, tibbiy madrasa mavjud. Muallimlari Farangiston (Fransiya)da tahsil olishgan [2.84-85].

Shu kabi ma'rifatparvar jadidlar gazetalarda amirlikning ijtimoiy- iqtisodiy hayoti masalalariga doir bir qancha maqolalarni chop ettirganlar. Birgina, Mirza Sirojiddin Hakim "Buxoroyi sharif" gazetasiga 30 dan ortiq maqolalari bilan qatnashgan [6.40]. Biroq, jadidlarning bu kabi ma'rifatparvarlik ishlari mutaassib ulamolar hamda Rossiya siyosiy agentligiga yoqmaydi. 1913- yil 12- yanvarda Rossiya siyosiy agenti vakili Petrovning imzosi bilan yozilgan maktubdagi talab bilan "Buxoroyi sharif" hamda "Turon" gazetalarning nashr etilishi to'xtatildi. Shu kungacha, "Buxoroyi sharif" gazetasining 153 soni, "Turon" gazetasining 49 soni chiqqan bo'lib, endilikda ular o'z faoliyatini butunlay to'xtatadi [3.242].

Sadriddin Ayniyning yozishicha, 1914- yil martda Buxoro jadidlari tomonidan kitob bilan savdo qiluvchi “Ma’rifat” kutubxonasi tashkil qilinadi. Bu kutubxonada Istanbul, Boku va Rossiyaning shaharlarida nashr qilingan asarlar ham bor edi. Shu yilda “Barakat shirkati” ham ochiladi. Shirkat amirlik hududlarida kitob do’konlari tashkil qilib, ziyo tarqatishni maqsad qilib qo’yadi. Xalq orasida ushbu shirkat “jadidlar shirkati” deb ham nom olgan [3.244-246].

Xulosa. Jadid ma’rifatparvarlari murakkab, ziddiyatli davrlarda ham o’zlarining islohotchilik faoliyatlarini davom ettirdilar. Taraqqiyparvarlar tomonidan amalga oshirilgan eski usuldagi maktablarni isloh etish, iqtidorli yoshlarni chet elga yuborish, teatr sahnalarini ibratxonaga aylantirish, milliy matbuotni yaratish kabi ishlari kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta’siri kuchli bo’ldi. Matbuotning vujudga kelishi odamlarning ijtimoiy hayotiga faol aralashishi va dunyodan xabardor bo’lishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi va ma’naviy ehtiyojga aylandi. Jadidlar keyinchalik 1920-yil sentabrda Buxoro amirligi davlati tugatilib, BXSР davlati tashkil topgan davrda ham o’zlarining maorif, matbuot sohasidagi faoliyatlarini davom ettirdilar. Shuningdek, o’z faoliyatini ma’rifatparvarlikdan boshlagan jadidlar keyinchalik xalq orasida rahbar kuch sifatida milliy, demokratik va ozodlik harakatlariga ham boshchilik qilib, jahonda munosib o’rniga ega bo’lgan milliy davlatchilikni tiklash borasidagi sa’y-harakatlarni ham amalga oshirdilar.

Литература/Адабиётлар/References:

1. Ш.М.Мирзиёев. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. -Тошкент: -“Ўзбекистон” – 2019. -Б.21.
2. Мирзо Сирожиддин Ҳаким. Туҳафи аҳли Бухоро (Сафарнома). Душанбе, “Адиб”, 1992.
3. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар // Асарлар. 8 томлик. I том. Нашрга тайёрловчи Мажид Ҳасаний. -Тошкент: Ўз ССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1963.
4. Bobojonova Feruza. Buxoro amirligida ta’lim tizimi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) /F. Bobojonova; -Toshkent: „Adib“ nashriyoti, 2014.
5. Жамолова Д. Тарихнинг номаълум саҳифалари / Домла Икромнинг «Машхур бидъатлар баёни» асари ҳақида. – Тошкент: 2020. № 7.
6. Ражабов Қ. Ёш бухороликлар // Бухоро мавжлари, 2005. №2.
7. Sh, Murtazoyev. "Oh the Manuscript of "Avariful-maarif"(Those People Recognizing Enlightenment) of Shakhabuddin Umar Sukhravardi." *International Journal on Integrated Education* 2.5.
8. Kilichev, Rajab Ergashovich. "BUKHARA IS THE ANCIENT CITY OF THE EAST." *Theoretical & Applied Science* 7 (2020).
9. Rajabov, Alisher, and Shoxijahon Urunov. "XVII ASRNING 1-HALF BUXORO XONLIGINING SIYOSIY INQIROZI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI." *Development of pedagogical technologies in modern sciences* 2.5 (2023).
10. ERKINOVICH, TUYEV FAZLIDDIN. "FACTORS OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT IN BUKHARA REGION IN 1991-1995 AND THE ISSUE OF PARTICIPATION IN FOREIGN RELATIONS." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.05 (2022).
11. Shokirov Mubin. "Tarixiy jarayonni bilish methodlari asosida analiz qilish." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 5.5 (2021).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).